

**“ O’ZBEK TILIDAGI SHE’RLARNI FRANSUZ TILIGA TARJIMA
QILISHDAGI MUAMMOLAR”**

Sotvoldiyeva Maftunabonu Erali qizi

Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo’rg’on filiali

Pedagogika va tillarni o’qitish fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi 21_01 guruhi talabasi

maftunaxonsotvoldiyeva551@gmail.com

Ilmiy rahbar: Ro’ziyeva Nasiba

O’qituvchi, Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo’rg’on filiali

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada she'riy tarjima va uning murakkab talablari tahlil qilingan. She'riy tarjimaning boshqa turdagi badiiy tarjimadan o'zaro farqli jihati tadqiq qilingan. Eng muhimi she'riy tarjimada o'ta muhim bo'lgan ijodkorlik va muqobil so'zni qo'llay olish mahorati ushbu maqolaning tahlil markazini tashkil etadi. Bundan tashqari ohangdorlik va ruhiyatni saqlay olish masalasiga katta e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, badiiy asar, tarjima, tarjimon, she'r, qofiya, ruhiyat, ilhom, iste'dod, mahorat, badiiylik

ANNOTATION

This article analyzes the translation of poetry and its complex requirements. The poetic translation have been studied among other types in particular, differences between literary translation. Most importantly, creativity and wording, which are very important in poetic translation, are the focus of this article. There is also a strong emphasis on the preservation of melody and spirit.

Keywords: literature, artwork, translation, translator, poetry, rhyme, psyche, inspiration, talent, skill, artistic style.

Tarjima bu bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi bo'lib tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishidir. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko'ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko'rinishga ham ega bo'lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og'zaki turi hozirgacha ham saqlanib kelgan va bu hozirgi davr tarjimonlar faoliyatida o'z aksini topadi. Tarjima odatda oddiy so'zlar yig'indisi sifatida ko'rinishi mumkin. Biroq, uning zamirida o'quvchi uchun bir qarashda kishi anglashi qiyin bo'lgan murakkab jarayon yotadi. Qolaversa, bu tarjimonni ko'proq izlanishga, qayta-qayta tahlil qilib so'zning nozik jihatlarini olib chiqishga majbur qiladi. Bundan

tashqari leksik, grammatik hamda stilistik bo'yoqdorlik kabi bir qator muammolar bor. Buning sababi biror-bir tildan ixtiyoriy olingan bir matnni boshqa bir tilga tarjima qilishda til bilish ko'nikmalarining o'zigina kifoya qilib qolmasligidir.

Tarjima jarayonida tarjimon son-sanoqsiz amaliy mushkulotlarga duch keladi. Bu kabi holatlar tarjimaning ijodiy faoliyat ekanligi tufayli, tarjimondan har bir muammoli holat yechimiga ijodiy ravishda yondashuvni talab qiladi. Asliyatga ijodiy munosabatda bo'lish tarjimada asosiy ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ma'lumki, tarjima ham muayyan darajada tarjimonning ijod mahsuli sanaladi. Jahon adabiyotining shoh asarlarini o'zbek tiliga va aksincha o'zbek she'riyatining shoh asarlarini boshqa tillarga tarjima qilish an'anasi, ko'plab tilshunoslarni va tarjimonlarni tarjima nazariyasi bilan jiddiy shug'ullanishga chorladi. Bunda chet tilidagi asarlarni o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish ko'zda tutilmoqda. Badiiy tarjima san'ati asosi mazmun va shaklni yaxlitligini saqlash asl va nusxa ruhini to'la yetkazish bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarjimon asl nusxaning mazmun va shaklning badiiy estetik butunligini tiklashga erishishi kerak. "Kontekst" har safar so'zning mohiyatini aniqlashtirishda uning atrofida boshqa birliklarini mavjud qilishda muhim ahamiyat kasb yetadi. Asl nusxaga bo'lgan e'tiborsizlik esa so'zma so'z tarjimaga olib keladi.

Shu o'rinda yuqorida aytib o'tilgan shoirona ilhomning tarjima asarlaridagi o'rnini anglash uchun unga ustoz shoirimiz hamda yetuk tarjimon Erkin Vohidov tomonidan berilgan ta'rifni eslashning o'zi kifoya: "Ilhomsiz yaratilgan har qanday asar, sevgisiz olingan bo'saga o'xshaydi". Haqiqatdan ham muhabbatsiz olingan o'pich qanchalar sovuq va yoqimsiz bo'lsa, ilhomsiz yaratilgan asar ham shunchalik jozibasizdir...

Badiiyat ilmida tarjimon tarjima masalalarini to'laqonli anglabgina qolmasdan, birmuncha ijodkorlik qobiliyatiga ham ega bo'lmog'i lozim. Negaki, badiiy asarni tarjima tiliga qayta namoyon etishda iste'dod, ilhom kabi mavhum unsurlarning ahamiyati va roli beqiyosdir. Shu bois, tarjimaning boshqa turlari (sinxron, ilmiy-texnikaviy, siyosiy-publisistik, axborot-analitik materiallar tarjimasi) bilan shug'ullanuvchi tarjimonlar tarjimaning eng murakkab hamda o'ta nozik turi hisoblanmish badiiy tarjimaga har doim ham qo'l urishga jurat etavermaydilar. Ilmiy matnlar tarjimasida kitobxonga muayyan xabarning asosiy mazmunni yetkazib berish tarjimaning maqsadini tashkil etsa, badiiy tarjimada - va ayniqsa uning yuragi bo'lmish she'riy tarjimada asar muallifining ichki kechinmalari hamda ruhiyatini asl holicha saqlab qolish uning asosiy maqsadi hisoblanadi. Shu bois ham mazkur soha vakillarini biz haqli ravishda shoir-tarjimon deb ataymiz. Nasriy asarda syujet, kompozitsiya va albatta muammolar yechimi bo'ladi. She'riy tarjimada esa tarjima qilinayotgan matn mazmuni saqlanibgina qolmasdan uning ohangdorligiga ham katta ahamiyat qaratish lozim bo'ladi. Bu holat esa o'z o'rnida tarjimondan ulkan mahorat hamda shoirlikdan

birmuncha xabardor bo'lishini talab etadi. Negaki, ba'zi so'z yoki so'z birikmalarini asl holicha tarjima qilishning imkoni bo'lmaydi.

Haqiqatdan ham she'riy tarjima o'ta murakkab tarjima jarayonlaridan biri. Shunga qaramasdan shoir-tarjimonlarimiz bu zahmatli vazifani ado etishda o'ziga xos, shu bilan bir qatorda birmuncha samarali ishlarni amalga oshirishmoqda. She'riy matn uchun shakl nafaqat asarning semantik elementlari ierarxiyasi, balki she'riyatga xos bo'lgan til atributlari: ritm, qofiya, strofik, unlilar va undoshlar o'rtasidagi munosabatlar, uzunlik, musiqiylik va boshqalar she'riy matnga o'ziga xos tartib bag'ishlaydi, bu esa she'riy matndagi so'zlarni tilga ko'proq qaram qiladi. Adabiy asardagi so'z har qanday qo'llanishda bir vaqtning o'zida o'zining barcha semantic va uslubiy imkoniyatlarini aniq yoki yashirin shaklda namoyon qilishi mumkin. Shuning uchun aytish mumkinki, she'riy asardagi so'z o'ziga xos sifat va mazmun kasb etadi. Ustoz Asqad Muxtor aytganidek "tarjimon – chizmakash emas, rassomdek ijod qiladi va tarjimaning turli, jumladan, metonimik transformatsiya usullari, implitsit ma'nolarini, eksplitsit bayon qilish usullari orqali muallif fikrini o'quvchiga yetkazib berishga harakat qiladi. Ammo to'rt satr she'rdagi ohang va lirik kechinmalarni o'quvchi qalbidan joy oladigan darajada tarjima qilish yuqorida aytib o'tganimizdek, shoirona ilhom va mahorat talab qiladi."

Yuqorida aytilganlarning barchasi shuni ko'rsatadiki, tarjimada mazmun semantik elementlarning yig'indisi bo'lib, ularning real faktlar va muallif niyati bilan o'zaro bog'liqligi, shakl esa mazmun elementlarining ma'lum bir ketma-ketlikda joylashishi, shuningdek, alohida tartiblanganligidir.

Tarjima nazariyasi uchun shakl va mazmun o'rtasidagi dialektik munosabatni tahlil qilish juda katta amaliy ahamiyatga ega, chunki u tarjima amaliyotining, xususan, she'riy asarlar tarjimasining imkoniyatlarini ochib beradi. Garchi bunday tarjima kontseptual mazmunni bildirsa-da, u asl nusxaning hissiy boyligi va lazzatini yaratish vazifasi ham qo'yiladi. Tahlillar shuni ko'rsatib turibdiki tarjimani san'at darajasiga ko'tarish uchun adabiyotni, she'riyatni ixlos, muhabbat, fidoyilik bilan bilish va sevish kerak. She'riy tarjimada esa faqatgina til bilish ko'nikmalariga tayanib qolmasdan balki, ilhom, qolaversa, tug'ma is'tedod bo'lishi ham muhim unsur ekanligini chuqur anglab yetishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odilova G. She'riy tarjima ko'ngil ishi.- T.: O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2013.8-son.
2. Musayev. Q. Tarjima nazariyasi asoslari.- T.: Fan 2005.362 b.
3. G'afurov I., Mo 'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. - T.: Tafakkur
4. Sariyev Sh. Adabiyot fanidan yaxlit o'quv- didaktik majmua. – T.: Sharq 2015.447 b.
5. Salomov G. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: Faxrizoda 2003.54 b.

6. Kenjaevna, R. N. (2022). THE ROLE OF DIALOGUE IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'SPEAKING SKILLS IN FRENCH LESSONS AND THE ROLE OF MULTIMEDIA LESSONS AND INFORMATION TECHNOLOGY. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 8(3), 15-17.
7. Ruziyeva, N. (2022). ESPECIALLY THE WORDS THAT HAVE BEEN ADAPTED FROM FRENCH TO UZBEK. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 3(6).
8. Kenjaevna, R. N. (2022). LITERARY ANALYSIS OF “FATHERS AND CHILDREN”. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), 271-277.
9. Kenjaevna, R. N. (2023). USING GAMES AND FREE LANGUAGE LEARNING APPS IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES THROUGH NEW INNOVATIVE APPROACHES TO FOREIGN LANGUAGE TEACHING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(1), 304-308.
10. Kenjayevna, R. N. (2023). ABOUT THE WORDS ADOPTED FROM THE FRENCH LANGUAGE INTO THE UZBEK LANGUAGE. Science and innovation, 2(C4), 109-113.
11. Kenzhaevna, R. N., & Abdukhaliqovna, M. K. (2023). Active and interactive methods of learning: review, classifications and examples. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior, 14(2), 246-258.
12. Ikromovna, M. M. (2023). THE PRESENCE OF A PARADOX IN EVELYN WAUGH'S WORKS. Conferencea, 14-16.
13. Ikromovna, M. M. (2022). SATIRICAL APPROXIMATION USED IN ENGLISH LITERATURE. Conferencea, 90-95.
14. Ikromovna, M.M. (2023) Artistic features of Evelyn Waugh. Research and Education. 2 (4), 366-370.
15. Ikromovna, M.M. (2023) Ivlin Vo va Abdulla Qahhorning yozuvchilik mahorati Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi 6 (4), 273-275
16. Ikromovna, M.M. (2023) Ingliz va o'zbek adabiyotida satira talqini Til va adabiyot ta'limi 5 (4), 116-117.
17. Ikromovna, M.M., & Sh. U. Kosimov, & M. R. Rafiqova (2021) Implementation of the Technological Competence of Future Specialists. Creative Education, 12 (3), 666-677. <https://www.scirp.org/journal/ce> ISSN Online: 2151-4771 <https://doi.org/10.4236/ce.2021.123046>.
18. Ikromovna M.M., & Xolmurodova O., & Norinova M. LEARNING AND TEACHING ENGLISH (For Children and Adults) Conferencea, 57-59.
19. Ikromovna M.M., & Aminova M. Cultural diversity and information and communication impacts on language learning. Republic of Uzbekistan Ministry of

Emergency Situations academy Different approaches to ...Materials of scientific-practical conference. 1 (10), 61-63.

20. Ikromovna M.I. (2022) Abdulla Qahhor hikoyalari qahramonlaridagi umidsizlik. Integration of science, education and practice. Scientific-methodological journal, 146-150, 2022.
21. Ikromovna M.M. (2022) Abdulla Qahhorning satirik qobiliyati. Science and Education 3 (6), 1557-1560.
22. Ikromovna M.M., (2022) Evelyn Waugh's satirical skills. Science and Education 3 (6), 1436-1440.
23. Ikromovna M.M. (2022) XX asr ingliz adabiyotida satira. Uchinchi renessans: ta'lim, tarbiya va pedagogika" mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. Noyabr, Toshkent-2022.